

**“DADA QO‘RQUT” VA “ALPOMISH” DOSTONLARIDA
KASB-HUNAR HAMDA MEHNAT MOTIVLARI****Barotova Xurshida Jalolovna,***Toshkent iqtisodiyot va texnologiyalar universiteti,**Ijtimoiy fanlar kafedrasida katta o‘qituvchisi,**filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),**baratovaxurshida375@gmail.com**ORCID ID 0009-0003-6874-0777***DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.18925605>

Annotatsiya. Ushbu maqolada turkiy xalqlar og‘zaki epik merosining yirik namunalari hisoblangan “Dada Qo‘rqut” va “Alpomish” dostonlarida kasb-hunar, mehnat va ijtimoiy faoliyat motivlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilindi. Dostonlarda aks etgan chorvachilik, jangchilik, hunarmandchilik hamda kundalik turmush mehnati bilan bog‘liq tasvirlar epik tafakkur mahsuli sifatida yoritiladi. Shuningdek, mehnatning qahramon xarakterini shakllantirishdagi o‘rni qiyosiy asosda ochib beriladi. Mazkur maqolada “Alpomish” va “Dada Qo‘rqut” dostonlarida aks etgan kasb-hunar va mehnat motivlarini ilmiy tahlil qilish, ularning umumiylik va farqlarini aniqlash, folklorshunoslik nazariyasi asosida qiyosiy xulosalar chiqarildi.

Kalit so‘zlar: epos, folklor, kasb-hunar, mehnat motivi, turkiy adabiyot, epik qahramon, ijtimoiy hayot, an‘ana.

Аннотация. В данной статье проводится научный и теоретический анализ мотивов профессии, труда и общественной деятельности в эпосах «Дада Коркут» и «Алпомиш», которые считаются основными образцами устного эпического наследия тюркских народов. Образы животноводства, войны, ремесел и повседневной жизни, отраженные в эпосах, выделяются как продукт эпической мысли. Также на сравнительной основе раскрывается роль труда в формировании характера героя. В статье проводится научный анализ мотивов профессии и труда, отраженных в эпосах «Алпомиш» и «Дада Коркут», выявляются их сходства и различия, и делаются сравнительные выводы на основе теории фольклора.

Ключевые слова: эпос, фольклор, профессия, мотив труда, тюркская литература, эпический герой, общественная жизнь, традиция.

Abstract. This article scientifically and theoretically analyzes the motifs of profession, labor and social activity in the epics "Dada Korkut" and "Alpomish", which are considered major examples of the oral epic heritage of the Turkic peoples. The images of animal husbandry, warfare, crafts and everyday life reflected in the epics are highlighted as a product of epic thought. Also, the role of labor in the formation of the character of the hero is revealed on a comparative basis. This article scientifically analyzes the motifs of profession and labor reflected in the epics "Alpomish" and "Dada Korkut", identifies their commonalities and differences, and draws comparative conclusions based on the theory of folklore.

Keywords: epic, folklore, profession, labor motif, Turkic literature, epic hero, social life, tradition.

Kirish. Xalq og‘zaki ijodi milliy madaniyatimizning ,xususan, turkiy xalqlar madaniyatining eng noyob, tarixiy qatlamlaridan biri bo‘lib, unda har bir millatning ijtimoiy hayoti, turmush tarzi, mehnat faoliyati, kasb-hunarlarini, axloqiy va falsafiy qarashlari hamda estetik didi, nafosati o‘z ifodasini topadi. Doston janri esa bu o‘quv jarayonining eng yuksak badiiy shakli sifatida xalqning tarixiy xotirasi, ijtimoiy-ma’naviy qadriyatlarini, urf-odat an‘analari va mehnatga bo‘lgan munosabatini mujassam etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning milliy meros va xalq og‘zaki ijodi haqida aytgan quyidagi so‘zlarini ta’kidlash joizki, “Xalqimizning boy tarixiy va madaniy merosi, jumladan, og‘zaki ijod namunalari yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda beqiyos manbadir.” Ushbu fikr xalq dostonlarining tarbiyaviy va ma’naviy ahamiyatini, insonlarga ta’sirini yana bir bor tasdiqlaydi. Bu fikrlar xalq dostonlarining milliy o‘zlikni anglash va yosh avlodni tarbiyalashdagi o‘rnini ko‘rsatadi.

Adabiyotlar tahlili. Turkiy xalqlar folklorshunos olimlaridan V. Jirmunskiy, Hodi Zarifov, B. Sarimsoqov, S. Karomatov, Orhan Shaik Go‘kyay, Muharrem Ergin va boshqalar dostonlarda mehnat motivlari yurtning ijtimoiy taraqqiyoti, iqtisodiy hayoti va axloqiy qadriyatlarini, tarbiyaviy ahamiyatini anglashda muhim manba ekanini ta’kidlaganlar. Xususan, epik asarlarda mehnatsevarlik, sabr, matonat kabi fazilatlar obrazlar xarakterining asosiy belgilaridan biri sifatida talqin etiladi. Olimlarning fikricha, mehnat motivlari dostonlarda faqat fon shunchaki ko‘rgazma sifatida emas, balki qahramonlarning xarakterini shakllantiruvchi, jamiyatning ijtimoiy tuzilishini aks ettiruvchi, xalqning madaniy hayoti, turmush-tarzini ko‘rsatuvchi asosiy elementlardan biridir.

Tadqiqot metodologiyasi. Turkiy xalqlar folklorida mehnat, kasb-hunar motivlari xalqning tarixiy turmush tarzi bilan bevosita bog‘liq holda shakllangan. Qahramonlik eposlari xalqning nafaqat jasoratini, balki mehnatsevarlik an‘analarini ham aks ettiradi. Xususan, Azarbayjon xalqlari milliy eposi “Dada Qo‘rqut” va Turonzamin xalqlari milliy eposi “Alpomish” dostonlari epik tafakkur taraqqiyotida muhim o‘rin egallaydi.

“Dada Qo‘rqut” dostoni turkiy xalqlarning qadimiy turmush tarzini aks ettiruvchi epik yodgorlikdir. Dostonning bosh qahramoni Qo‘rqut Ota xalqning farovonligi uchun sa’y-harakat qilgan, ilmi, aqlli, o‘z hayot tajribasidan o‘zgalarni manfaatlantirgan inson sifatida tasvirlanadi. Bu ulug‘ shaxs haqida ayrim adabiyotlarda Hazrati Muhammad alayhissalom zamonlarida Sirdaryo atrofida yashagan O‘g‘uzlarning Bayot yohud Qayi bo‘yiga mansub Qora Xo‘ja ismli o‘ta aqlli dono, olim va karomat sohibi bo‘lgan bir zotning o‘g‘lidir, - deya ta’kidlanadi. Dada Qo‘rqut bilan bog‘liq hikoyatlarda u O‘g‘uzlarning g‘am-tashvishi bilan hayot kechirgani, adashganlarga, qiyin ahvolga tushgan kambag‘allarga yordam bergani aytiladi. So‘z mulkingning sultoni Hazrat Navoiy o‘zining “Nasoyim ul-muhabbat” asarida bu buyuk zot haqida shunday yozadi: “Turk ulusi arosida shuhrati andoq ortug‘durki, shuhratqa ehtiyoji bo‘lg‘ay. Mashhur mundoqdurki, necha yil o‘zidan burunqini, necha yil o‘zidan so‘nggi kelurni debdurlar. Ko‘p mavizaomuz mag‘izlik so‘zlari aroda bor” [9:145]. “Dada Qo‘rqut” kitobida o‘n ikki hikoya bo‘lib, bu hikoyalar mazmuni hayotiy voqea-hodisalar hamda mifalogik elementlardan tashkil topgan. Bu dostondagi ayrim qahramonlar, lavhalarning o‘zbek qahramonlik eposi “Alpomish” dostoni bilan o‘xshashligi xarakterlidir. “Dada Qo‘rqut” dostoni tarkibidagi “Bamsi Bayrak”, “Bo‘g‘och xon” bunga yaqqol misol bo‘ladi. “Bo‘g‘och xon” hikoyati bosh qahramoni Dersaxon, “Alpomish” dostoni bosh

qahramonlari Boybo‘ri va Boysaribiyning hayot yo‘li, turmush tarzi bir-biriga hamohang. “Bo‘g‘och xon”da Bo‘yindirxonning ziyofat berish sahnasi, farzandsizlikdan qiynalgan Dersaxonning shu ziyofatda qattiq izza bo‘lishi bilan bog‘liq voqealar, “Alpomish” dostonidagi bir chupronto‘y ziyofatga brogan, farzandsiz Boybo‘ri va Boysaribiyning ayni hayot yo‘li bilan bir xil tasvirlangan. “Bo‘g‘och xon”da tasvirlanishicha: “Bo‘yindirxon kata bir ziyofat uyushtirdi, bir yerga oq chodir, bir yerga qizil chodir, bir yerga esa qora chodir qurdirdi. “O‘g‘il-qizi yo‘qlarni qora chodirga tushiring, ularga qora qo‘yning go‘shidan yediring, yemaganlari turib ketishsin!” dedi.

Dersaxon ismli bekning farzandi yo‘q edi. ... “Bu mening sha‘ninga nisbatan haqorat”, dedi. Uyiga keldi...” [3:5]. “Alpomish” dostonida esa o‘xshash voqea quyidagicha tasvirlanadi: “O‘n olti urug‘ Qo‘ng‘irot elida bir chupron to‘y bo‘ldi. Xaloyiqlarni, elatiyalarni (ko‘chmanchi chorvadorlar) to‘yga xabar qildi. Shu to‘yga barcha xaloyiqlar yig‘ildi. Biylar ham to‘yga keldi. To‘ydagi kattalar avvalgiday bu biylarni otini ushlamadi, o‘zini xushlamadi, ostiga libos tashlamadi. Biylar judda qattiq xafa bo‘lib Qo‘ng‘irot elidan bu holatdan so‘z so‘radi. Bul to‘ydagi bir chapanitob boyvachcha bu biylarga qarata bir so‘z dedi: “Ey Boybo‘ri bilan Boysari! Bul to‘y o‘g‘illining o‘g‘lidan, qizining qizidan qaytadi, sening nimangdan qaytadi?!” Biylar buning gapini eshitib xafa bo‘lib uyiga qaytdi”. [1:15] Bu ikki dostonidagi voqealar hamda xalq turmush tarzi ham bir-biriga o‘xshashdir. Har ikki dostonida ham bir xil chorvador, elatiyalar hayoti tasvirlangan. “Dada Qo‘rqut” hikoyatlaridan “Tepako‘z” hikoyatida ham chorvador cho‘pon hayoti tasvirlangan. “Aro‘zning bir cho‘poni bor edi. Bir kuni cho‘pon buloq boshida pari qizlarni ko‘rdi” [3:10], degan so‘zlar bilan hikoya boshlanadi. Yoki “Salur Qozon” hikoyatida ham hikoya bosh qahramoni Salurning cho‘ponlarga qarata qilgan quyidagi murojaatidan ya‘ni, “Ey cho‘pon! Chodirim, yerim, yurtim vayron bo‘ldi. Nima bo‘lganini ko‘rmadingizmi?” [3:29], jumlasidan voqealar keyingi voqealarga ulanib ketadi. Yuqoridagi misollardan ko‘rinadiki, “Dada Qo‘rqut” va “Alpomish” dostonida chorvachilik asosiy hayot manbai sifatida tasvirlanadi. Qahramonlarning boyligi ko‘pincha ot va chorva mollari orqali ifodalanadi. Masalan, doston matnlarida qahramonlarning ot parvarishi, safarga tayyorgarligi va jangovar mashqlari mehnat jarayoni sifatida beriladi. “Alpomish” dostonida otboqarlik, yilqichilik, sinchilik, chorvachilik, merganlik, kurashgirlik, jangovarlik, sallohlik, sut sog‘uvchilik, elchilik, tilchilik (tarjimonlik) kabi kasbiy faoliyat jarayonlari chiroyli tasviriy ifodalar bilan tasvirlanadi. Masalan, Barchinoyning Qalmoq beklariga qarata aytgan so‘zlarida “Har kim maydonga ot soladi, otini o‘zdirgan odam oladi”, [2:120] “kurashda alplarning barini yiqqan pushtigirga tegaman” [2:122], “ming qadimdan tanga pulni urgan merganga tegaman” [2:122], “sinchilar besh yuz otni qarichlab ko‘rdi” [2:129], “Barchinoy Ko‘kqamish ko‘lida sut sog‘uvchilikni o‘rgandi” [2:14], “Chilbir cho‘lida kamonbozlik bo‘lib, merganlar kurashishdi” [2:157], “Kurashni ko‘ramiz. O‘zbekdan Alpomish, Qalmoqdan Toychixon kurash qiladi” [2:158], “Elchilarning bo‘lar ekan tilchisi” [2:236] kabi jumalalarda nafaqat

qahramonlik, vatanparvarlik va axloqiy-ruhiy motivlarni, balki kasb-hunar va mehnatning ijtimoiy hayotdagi o'rnini ham batafsil yoritiladi. "Alpomish" dostonida chorvachilik xalqning asosiy tirikchilik manbai sifatida tasvirlanadi. O'n olti bo'li Qo'ng'iro't elining chorvachilik bilan shug'ullangan faoliyati dostonning dastlabki kirish qismida beriladi. "Boybo'ri minglab ot va tuyaga ega edi, xalq orasida boyligi bilan mashhur bo'ldi" [1:11] Bu jumla chorvachilikning xalq hayotidagi asosiy tirikchilik manbai ekanini ko'rsatadi. Dostonda qahramonlarning boyligi, ijtimoiy mavqei ko'pincha chorva soni bilan o'lchanadi. Boybo'ri va Boysari orasidagi zakot bilan bog'liq bo'lgan voqealar zamirida chorva soni bilan bog'liq voqealar turadi. Otchilik, yilqichilik esa dostonning markaziy motivlaridan biri bo'lib, Alpomishning jangovar qudrati va ijtimoiy mavqei belgilovchi omil sifatida ko'rsatiladi. Uning sodiq do'sti – Boychibor oti bilan ko'rsatgan qahramonliklari, Qalmoq alplari bilan bo'lgan poygada g'olib kelishi, o'zbekning zotdor oti Boychiborning ta'siri kuchli ekanligini ko'rsatadi. "Alpomish otini minglab yovga qarshi choptirib, orini ko'tarib, o'zbek elining sha'nini himoya qildi" [1:139]. Bu iqtibos jangovar hunar va mehnatning qahramonlik bilan uzviy bog'liqligini ifodalaydi.

Hodi Zarifov ta'kidlaganidek, "Alpomish"da ot nafaqat transport vositasi, balki qahramonlik ramzi, mehnat va bardoshlilik timsolidir. Dostondagi chorvachilik va yilqichilik motivlari xalqning iqtisodiy hayoti bilan uzviy bog'liq ekanini ko'rsatadi.

"Alpomish" dostoni qahramonlari, jumladan, Qo'ng'iro't elining alplari jangovar san'atni mehnatning bir ko'rinishi sifatida egallagan. Alpomish va alplarning kurash, ot choptirish, nayza uloqtirish, merganlik kabi hunarlari xalqning mehnat faoliyati bilan uzviy bog'liq bo'lib, ularning ijtimoiy hayotda tutgan o'rnini ko'rsatadi. Bahodir Sarimsoqovning fikricha, jangovar hunarlarning tasviri dostonlarda xalqning mehnatga bo'lgan munosabatini, sabr-toqat va bardoshlilikni ifodalaydi.

Ta'kidlash joizki, ko'pgina xalq dostonlarida, jumladan, "Alpomish"da ham hunarmandchilik motivlari uchraydi. Qahramonlarning kiyim-kechaklari, qurollari (temirchilikning yaxshi taraqqiy etgani), uy-joylari (o'tovlarning tuzilishida qurilishning) xalq hunarmandlarining mehnati mahsuli sifatida tasvirlanadi [6:74]. Bu tasvirlar xalqning moddiy madaniyati va mehnat faoliyatini aks ettiradi. Xalq dostonlarida hunarmandchilik motivlari milliy mentalitet va estetik qadriyatlarni ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

Tahlillar va natijalar. Doston qahramonlari turli ijtimoiy qatlamlarning turmush-tarzini, hayot faoliyatini yaqqol namoyon etadi. Boylar chorva va mulk bilan, qahramonlar jangovar hunar bilan, oddiy xalq esa mehnat faoliyati bilan tasvirlanadi. Bu tasvirlar xalqning ijtimoiy tuzilishini aks ettiruvchi badiiy obrazlar sifatida namoyon bo'ladi. Turkiy xalqlar og'zaki ijodining eng yirik namunasi biri bo'lgan "Alpomish" dostoni xalqning ijtimoiy hayoti, mehnat faoliyati va kasb-hunar an'analari keng yoritadi. Dostonning badiiy tuzilishida mehnat motivlari qahramonlarning xarakterini shakllantiruvchi, xalqning turmush tarzini aks ettiruvchi asosiy elementlardan biri sifatida

namoyon bo'ldi. Akademik To'ra Mirzayev ta'kidlaganidek: "Alpomish" xalqning milliy qadriyatlar qomusi bo'lib, unda urf-odatlar, marosimlar va mehnat an'analari mujassam" [7:139].

"Dada Qo'rqut" dostonida ham chorvachilik, ovchilik, hunarmandchilik, jangovar san'at, dehqonchilik kabi mehnat turlari xalqning hayotiy tajribasi va dunyoqarashini aks ettiruvchi badiiy obrazlar orqali keng tasvirlanadi.

Xalq dostonlarida kasb-hunar va mehnat motivlarini o'rganish folklorshunoslikning muhim yo'nalishlaridan biridir. Chunki mehnat insoniyatning ijtimoiy taraqqiyotida eng muhim omil bo'lib, xalq og'zaki ijodida u nafaqat iqtisodiy faoliyat sifatida, balki axloqiy, estetik va tarbiyaviy qadriyat sifatida ham tasvirlanadi.

Turkiy xalqlar ,xususan, Azarbayjon og'zaki ijodining buyuk yodgorliklaridan biri "Dada Qo'rqut" dostonlari (hikoyatlari). Bu epik asar o'z davrining ijtimoiy hayoti, kundalik turmushi, mehnat faoliyati va kasb-hunar an'ana va qadriyatlarini batafsil tasvirlab beradi. Bu dostonlarda mehnat ramzlari xalqning turmush tarzi, iqtisodiy faoliyati va axloqiy qadriyatlari bilan uzviy bog'liq holda izohlaydi. "Dada Qo'rqut" hikoyatlaridagi "O'g'uz elining boyligi — ot va qo'y edi. Ot chopmasa, qo'y boqmasa, elning nomi chiqmas" [3:41] jumlasida chorvachilik turk qabilalarining asosiy tirikchilik manbai sifatida ko'rsatiladi.

Ovchilik esa kundalik turmush faoliyati hamda tirikchilik vositasi, balki qahramonlik sinovi sifatida tasvirlanadi. Turk folklorshunosi Orhan Shaik Go'kyay ta'kidlaganidek, "Dada Qo'rqut"da ovchilik motivlari xalqning tabiat bilan uyg'un hayot kechirganini aks ettiradi. Jumladan, "Bo'g'ochxon" hikoyatida "O'g'ling kiyik ovlayapti, sening oldingga olib keladi" [3:7] jumlasida Bo'g'ochxonning ovchilik borasidagi mahorati, "Emren" hikoyatida esa "Salur Qozon Begilning ov qilishga juda usta ekanligini gapirdi. Buni eshitgan Bo'yindirxon" **"Bu hunar Begilniki emas, otinikidir"**, – dedi" [3:12] ushbu gapda esa ov qilish uchun uchqur otning ta'siri nihoyatda katta ekanligi ta'kidlanadi. Yana ushbu hikoyatda quyidagi voqea bayon etiladi: "Ovda ro'parasidan bir kiyik chiqdi. Begil kiyikning ortidan quvdi. Kiyik o'zidan baland bo'lgan bir yerdan pastga sakradi. Begil otni to'xtatmadi, kiyik bilan birgalikda uchdi" [3:12]. Bu yerda Begilning mohir ovchiligi tasvirlangan. "Salur Qozon" hikoyatidan "Ovga borib ko'nglimni yozib kelaman" [3: 29] jumlasida ovning nafaqat tirikchilik manbai, balki inson ruhiyatiga ta'siri ham aks etgan. "Bonu Chechak" hikoyatida ov mashg'ulotlari, ot choptirish, kamonbozlikni erkaklar bilan bir qatorda ayollar ham bu hunarlarni puxta egallaganligi tasvirlangan. Quyidagi parchada yuqoridagi aytilgan fikrlar o'z tasdig'ini topadi. "Men Bonu Chechakning enagasiman. Kel, sen bilan birgalikda ovga chiqamiz. Ot solishamiz, sen bilan kamon otishamiz. Agar meni yengsang, Bonu Chechakni ham yengasan" [3:33].

Doston qahramonlari jangovar hunarlarni ham yaxshi egallagani va bu mehnatning bir ko'rinishi sifatida tasvirlangan. Nayza uloqtirish, qilichbozlik, ot chopish kabi hunarlar

qahramonlarning ijtimoiy mavqeini belgilovchi asosiy omil sifatida ifodalangan. Turk folklorshunosi Muharrem Erginning ta'kidlashicha, jangovar hunarlarning tasviri "Dada Qo'rqut"da xalqning mehnatga bo'lgan munosabatini, sabr-toqat va bardoshlilikni ifodalaydi.

Shuningdek, "Dada Qo'rqut" hikoyatlarida hunarmandchilik motivlari ham uchraydi. Qahramonlarning qurollari, kiyimlari, uy-joylari xalq hunarmandlarining mehnati mahsuli sifatida tasvirlanadi. Bu tasvirlar turk qabilalarining moddiy madaniyati va mehnat faoliyatini aks ettiradi. Bundan tashqari, "Dada Qo'rqut" dostonida mehnat motivlari axloqiy qadriyatlar bilan uzviy bog'liq holda tasvirlanadi. Mehnatni qadrlash, halollik, sabr-toqat, bardoshlilik kabi fazilatlar qahramonlarning xarakterida namoyon bo'ladi. Bu jihatlar xalqning axloqiy qarashlarini aks ettiruvchi badiiy obrazlar sifatida ko'rsatiladi.

"Alpomish" va "Dada Qo'rqut" dostonlarida kasb-hunar va mehnat motivlari xalqning ijtimoiy hayoti, iqtisodiy faoliyati va axloqiy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim badiiy element sifatida namoyon bo'ladi. Har ikkala doston turkiy xalqlarning qadimiy turmush tarzini, mehnat faoliyatini va kasb-hunar an'analarini badiiy obrazlar orqali ifodalagan. Chorvachilik har ikkala dostonning asosiy iqtisodiy ramzi sifatida tasvirlangan. Yilqichilik, otboqarlik (otchilik)da ifodalangan ot – qahramonlik ramzi, jangovar hunar, kurash, merganlik esa mehnatning bir ko'rinishi sifatida tasvirlanadi. "Alpomish" ham, "Dada Qo'rqut" hikoyatlaridagi qahramonlar ham ot chopish, nayza uloqtirish, kurash kabi hunarlarda mahorat ko'rsatadi. Har ikkala dostonda qurol-aslaha, kiyim-kechak, uy-joy tasvirlari xalq hunarmandlarining mehnatini aks ettiradi. Bu motivlar moddiy madaniyatni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. "Dada Qo'rqut", "Alpomish" dostonlarida aks etgan axloqiy qadriyatlar, mehnatsevarlik, halollik, sabr-toqat, bardoshlilik, kabi fazilatlar bilan uzviy bog'liq holda tasvirlanadi.

"Alpomish"da otchilik va chorvachilik o'zbek xalqining turmush tarziga xos bo'lsa, "Dada Qo'rqut"da ovchilik va jangovar hunar turk qabilalarining hayotiy tajribasini aks ettiradi. "Alpomish"da mehnat bilan bog'liq ramzlar qahramonning ijtimoiy mavqeini belgilashda muhim rol o'ynasa, "Dada Qo'rqut"da ular qahramonlik sinovi va axloqiy qadriyatlarni ifodalashda asosiy element sifatida namoyon bo'ladi. "Alpomish"da mehnat motivlari ko'proq realistik tasvirlangan bo'lsa, "Dada Qo'rqut"da ular epik va ramziy obrazlar orqali ifodalangan.

Xulosa. V. Jirmunskiy va Hodi Zarifov ta'kidlaganidek, "Alpomish" dostonida mehnat motivlari xalqning iqtisodiy hayoti bilan uzviy bog'liq bo'lsa [5:37], Orhan Shaik Go'kyay va Muharrem Erginning fikricha, "Dada Qo'rqut"da mehnat motivlari xalqning axloqiy qadriyatlari va qahramonlik idealini ifodalashda muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, har ikkala doston mehnat motivlarini xalqning ijtimoiy hayoti va ma'naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi badiiy element sifatida tasvirlaydi, biroq ularning milliy xususiyatlari va estetik tasvir uslublari farqlanadi. Yuqoridagi tahlillar shuni ko'rsatadiki, "Alpomish" va "Dada Qo'rqut" dostonlarida kasb-hunar va mehnat motivlari xalqning

ijtimoiy hayoti, iqtisodiy faoliyati va axloqiy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim badiiy element sifatida namoyon bo'ladi. Har ikkala doston turkiy xalqlarning qadimiy turmush tarzini, mehnat faoliyatini va kasb-hunar an'alarini badiiy obrazlar orqali ifodalaydi. Chorvachilik, otchilik, ovchilik, jangovar hunar va hunarmandchilik motivlari xalqning moddiy madaniyati va ijtimoiy tuzilishini aks ettiruvchi asosiy element sifatida tasvirlanadi. Mehnat, mehnatsevarlik qahramonlarning xarakterini shakllantiruvchi, ularning ijtimoiy mavqeyini belgilovchi va axloqiy qadriyatlarini ifodalovchi badiiy vosita sifatida namoyon bo'lgan.

Har ikkala dostonning ham yetishib kelayotgan yosh avlodga tarbiyaviy ahamiyati katta. Mehnat ramzlari orqali dostonlarda halollik, sabr-toqat, bardoshlilik, mehnatsevarlik, jasorat kabi fazilatlar targ'ib qilinadi. Qahramonlarning mehnatga bo'lgan munosabati yosh avlodni mehnatsevarlik, vatanparvarlik va axloqiy poklik ruhida tarbiyalashga xizmat qiladi. "Alpomish" va "Dada Qo'rqut" dostonlarida mehnat motivlarini o'rganish turkiy xalqlar folkloridagi umumiylik va milliy xususiyatlarni aniqlashda muhim manba hisoblanadi. Bu motivlar xalqning tarixiy taraqqiyoti, ijtimoiy hayoti va ma'naviy qadriyatlarini anglashda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi. Folklorshunoslikda mehnat motivlarini tahlil qilish xalq og'zaki ijodining tarbiyaviy va estetik ahamiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Alpomish dostoni. Toshkent.: Sharq, 1998. – 397 bet.
2. Alpomish dostoni versiyalari. Toshkent.: Turon, 2020. – 180 bet.
3. "Dada Qo'rqut" hikoyalari. Toshkent.:Ziyo,2010. – 40 bet.
4. Gökyay O. Ş. Dede Korkut Kitabı. – İstanbul: Milli Eğitim Bakanlığı Yayınları, 1973. – 62.
5. Жирмунский В. М. Эпические сказания народов Средней Азии и Казахстана. – Москва: Наука, 1977. – 295 ст.
6. Karomatov S., Sarimsoqov B. Folklorshunoslikka kirish. – Toshkent.: Fan, 1983. – 180 b.
7. Rustamov A. Alpomish dostonining poetikasi. – Toshkent: Fan, 1975. – 265 b.
8. Sarimsoqov B. O'zbek folklori tarixi. – Toshkent: Sharq, 1981. – 231 bet.
9. Turkiy xalqlar adabiyoti. Majmua. – Toshkent.: Ilm-ziyo, 2013. – 360 bet.
10. Zarifov H. O'zbek xalq dostonlari. – Toshkent: Fan, 1959. – 163 bet.